



MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



II-SHO‘BA: TA’LIM TIZIMIDA SIFAT VA SAMARADORLIKKA ERISHISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, XALQARO BAHOLASH TAJRIBALAR, FANLARARO TADQIQOT USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.

TA’LIM KLASTERI MUHITIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO SIFATIDA

*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna,
ChDPU professori, p.f.d.(DSc)*

Annotatsiya. Maqola bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda uning qiziqishlari yo‘lidagi xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, ular oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo‘yish hamda kasbiga nisbatan qiziqishi, manfaatdorligini ifodalovchi ichki motivatsiyasi, iroda sohasining rivojlanganligi haqida aytib o‘tilgan. Shuningdek, muallif pedagoglarning kreativ faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, ta‘lim jarayoni, ko‘nikma va malakalar, ta‘lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion jarayon, o‘qituvchi, talaba, faoliyat, kreativlik.

Annotasiya. V state idet rech o podderjke deystviy budущего uchitelya v napravlenii yego interesov v razvitiy yego tvorcheskix sposobnostey, postanovke pered nim chetkix seley i zadach, a takje o yego vnutrenney motivatsii, vyrajayuyщey yego zainteresovannost i interes k svoey professii, a takje o razvitie polya voli. Takje avtor rasskazal o voprosax razvitiya tvorcheskoy deyatelnosti pedagogov.

Klyuchevыe slova. Pedagogika, obrazovatelnyy protsess, navyki i umeniya, obrazovatelnyaya sistema, pedagogicheskie texnologii, innovatsionnyy protsess, uchitel, student, deyatelnost, kreativnost.

Abstract: The article is about supporting the future teacher’s actions in the direction of his interests in the development of his creative abilities, setting clear goals and tasks for them, and about his internal motivation, which expresses his interest and interest in his profession, and about the development of the field of will. raised The author also spoke about the issues of developing the creative activity of pedagogues.

Key words. Pedagogy, higher education institution, education process, skills, education system, pedagogical technology, innovative technology, future teachers.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimining jahon ta‘lim tizimiga integrallashuvi, ta‘lim jarayonidagi glaballashuv rivojlanish, shaxsning rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash muammosini zamonaviy nuqtai nazardan talqin etishni taqozo etadi.

Respublikamizda oliy ta‘limning vazifasi bo‘lajak mutaxassislarga nafaqat bilim berish, balki ularni kelgusida kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini namoyon etish va ijodiy imkoniyatlarini faollashtirishga tayyorgarligini shakllantirishdan iborat. Demak, hozirgi zamon ta‘lim oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy vazifalar shaxsni nafaqat ijtimoiylashtirish, balki kasbiy, hissiy va

ma'naviy-axloqiy sohalarda uzluksiz rivojlantirishni ham nazarda tutadi. O'zgaruvchan sotsiumda yuzaga keladigan shart-sharoit va talablarga qarab, bo'lajak mutaxassislar o'z faoliyat yo'nalishlarini o'zgartira olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa ulardan tinimsiz mehnat, rivojlanish va ijodkorlikni talab etadi.

Vatanimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi va uni isloh qilish strategiyasi, shubhasiz, shaxsning o'zini o'zi, shu jumladan, kasbiy rivojlanishiga pedagogik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan gumanistik paradigma g'oyasi bilan uzviy bog'liq. Yosh avlodning jismonan va ma'nan barkamol bo'lib voyaga yetishiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilishi zamirida, albatta, mustaqil tafakkurli, ijodkor va yuksak ma'naviyatli shaxsni kamol toptirish maqsadi mujassam. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangicha tizim asosida yo'lga qo'yish borasida belgilangan vazifalar yoshlar ta'lim-tarbiyasiga daxldor muhim chora-tadbirlar ijrosini taqozo etadi.

Mazkur hujjatlarda qayd etilgan talablar uzluksiz ta'lim tizimida qo'lga kiritilayotgan innovatsion o'zgarishlarning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'lib, asosan, boshlang'ich ta'lim jarayoniga ham tegishlidir. Chunki bu bosqichda talabalar savodxonlik asoslari, hisoblash tafakkuri, mehnat ko'nikmalari va shaxs ma'naviyati elementlari bilan qurollantiriladi. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan muammo yechimiga mos bo'lishi kerak. Bular zamonaviy ta'lim tizimidagi sub'ektlar, xususan, bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini jamiyat taraqqiyoti darajasiga muvofiq muntazam holda yuksaltirib borishni taqozo etadi.

Talabalarning jamoaviy ijodiy faoliyatini tashkil etish haqida so'z ketganda, ijodkorlikning o'zi nima ekanligini aniqlash, so'ng ijodiy faoliyatni tashkillashtirish mezonini tanlash maqsadga muvofiq. "Ijodkorlik" tushunchasi ko'pgina fanlarning tahliliy asosi sanaladi. Uning ma'nolarini aniqlashda ushbu qobiliyatning serqirra ekanligi muhim o'rin tutadi. Tushuncha o'zida "ijodiy munosabat", "ijodiy faoliyat", "ijodiy mehnat", "ijodkor shaxs", "ijodiy o'ziga xoslik" kabi ma'nolarni mujassam etadi.

XIX asr oxirida ko'pgina faylasuflar tomonidan ijodkorlik tushunchasiga oid qarashlar ilgari surilgan bo'lib, har birida o'ziga xos individuallik va tafakkurning turfaligi sezilib turadi. Binobarin, ijodkorlik "ijtimoiy ahamiyatga ega yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyatidir".

"Ijodkorlik – bu qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan inson faoliyati ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning uchun ob'ektiv (ijtimoiy, axloqiy) va sub'ektiv shaxsiy shart-sharoit (bilim, ko'nikma, ijodiy qobiliyat) kabilar zarur, uning natijasi yangilik va taraqqiyparvarlik kasb etadi.

"Ijodkorlik – bu faoliyat bo'lib, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yuzaga kelishi uning natijasi hisoblanadi".

Ijodkorlik – noyob va betakror qobiliyat. Manbalarda mazkur tushunchaning u yoki bu talqinlari mavjud bo'lib, ijodiy jarayonning mohiyati, tuzilishi, ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi borasida har xil fikrlar uchraydi. E'tiborni "ijodkorlik" tushunchasining qo'llanilish doirasiga qaratilsa, uning serqirraligi ayon bo'ladi. Bu

kategoriya “faollik”, “faoliyat”, “jarayon”, “faoliyat turi”, “faoliyat ko‘rinishi” sifatida talqin qilinadi. Kuzatishlarda uning “ijodiyot avvali”, “ijodiy imkoniyat”, “ijodiy qobiliyat”, “ijodiy imkoniyat”, “ijodiy tafakkur”, “ijodiy faollik” kabi turli jihatlari klassik falsafa umumiy rejasiga mos kelmasligi ma’lum bo‘ldi. Insoniyatning ijodiyot sub’ekti sifatida o‘zini o‘zi anglashi ijodkorlik muammosiga oid tushunchalarni ko‘rib chiqishning yangi yo‘nalishlarini belgiladi.

Insonning ijodkorligi masalasi XX asr falsafiy konsepsiyalarida muhim bir muammoga aylandi. Biroq u klassik falsafada ko‘rilganidan o‘zgacharoq, ya’ni butun tushunchalarni qiyoslash orqali emas, balki unga aniq insonning dunyoda mavjudligi, shaxsiy tajribasi, taraqqiyoti hamda hayoti masalasi sifatida qaraladi.

Ob’ektiv borliqni va kreativ jarayonning ruhiy mexanizmlarini aks ettiruvchi ijodkorlikning mashhur tushunchalariga quyidagilar kiradi:

– nemis psixologi O.Zelsning ijodkorlik jarayoni intellektual operatsiyalari nazariyasi. U turli o‘zaro uyg‘un birikmalarda bir qancha asosiy intellektual harakatlar mavjudligini nazarda tutadi. Aynan O.Zels ijodiy vazifalarni hal qilish nazariyasiga antitipatsiya – oldindan sezish tushunchasini kiritadi.

– ijodiy jarayonning geshtalt-psixologik nazariyasi. Mazkur nazariya tarafdorlari V.Keler, K.Koffka, M.Vertgeymer, K.Dunker va boshqalar fikrlash, tafakkur ijodiy asosda shakllanadi degan fikrni tasdiqlaydilar. Tafakkur fikrlash jarayoniga va uning alohida elementlariga borib taqalmaydi, balki yangi “geshtalt”, ijodiy yaxlitlikni hosil qiladi. Ushbu yangi sifat muammoli vaziyatda kutilmagan holda yuzaga keladi.

Ijodkorlik muammosi ko‘pgina mahalliy psixologlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, S.L.Rubinshteyn ijodiyotga faoliyat sifatida qaraydi, uning natijasida noyob va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot yaratilishi ta’kidlanadi [...].

Ijodiyot muammosini tadqiq qilish badiiy ijodkorlikning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdan boshlangan. Ijodkorlik psixologiyasi A.A.Pogebning falsafiy-lingvistik asarlari ta’sirida shakllangan. D.N.Ovsiyanniko-Kulikovskiy, A.G.Gornfeld, B.ALezinning ishlari ham ushbu yo‘nalishga taalluqli. Ijodkorlik E.Max va R.Avenarius tomonidan taklif qilingan “tafakkurda kuchlarni tejash qonuni” yordamida izohlanadi. Ijodiyot jarayoni bosqichlarida ijodkorlik qonuniyatlari masalalari ko‘tarilgan.

V.I.Zagvyazinskiyning “O‘qituvchining pedagogik ijodkorligi” kitobida ijodiy faoliyatga “yangi pedagogika tizimini yaratish, noma’lum qonuniyatlarni ochish, yangi g‘oyalar, usul, vositalar; yangilik yaratish, insonning ichki mohiyati asosidagi kuchlarini uyg‘otish orqali ijod qilish” ta’rifi beriladi. Olim tomondan pedagog ijodiyotining quyidagi farqli jihatlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Vaqt jihatidan qat’iy belgilangan va chegaralangan. Agar darsda kutilmagan holat ro‘y bersa, o‘qituvchi qisqa muddat ichida yangi qaror qabul qilishi shart.

2. Pedagogik ijodiyot o‘quv-tarbiyaviy jarayon bilan yaxlit tutash bo‘lganligi sababli u har doim ijobiy natijalarga olib kelishi lozim. Salbiylari esa faqat xayoliy sinov va taxminlardagina bo‘lishi mumkin.

3. Pedagogik ijodkorlik doimo hamkorlikdagi ijodiy ishdir.

4. Ijodiyotning sezilarli qismi odamlar oldida ommaviy tarzda (o'zining ruhiy holatini boshqara olish ko'nikmasi) amalga oshiriladi.

V.I.Zagvyazinskiy faqat aktyorlik va pedagogika sohalarida shaxsning bir-biriga mos keluvchi xususiyatlari va ijodkorligi bilan to'qnash kelish holatiga e'tiborini qaratib, o'qituvchi aksariyat hollarda ta'lim oluvchilarga pedagogik ta'sirning vosita va usullari majmuini tanlab qo'llashning ba'zi jihatlarini bayon etadi. Olim shaxsning ijodiy faoliyatga kirishishida variantlarni tanlash va baholash, natijalarni oldindan bilish va baholashda o'zining mustaqilligi va ixtirochiligini namoyon etishi zarurligiga ham alohida to'xtaladi. Shuningdek, pedagogik ijodkorlik asosini ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va maqbul yondashuvlarni tanlash tartibiga amal qilishda deb biladi.

S.A.Gilmanovning tadqiqot ishida pedagog shaxsiga xos ijodiylik sifatleri quyidagicha belgilanadi:

1) "pedagog "Men"i"ning shakllanganligi (dolzarblikka intilishi, ishonch va g'oyalarning yaxlitligi, faoliyatda irodalilik va maqsad sari intilishi);

2) pedagogik "Men-kopsepsiyasi"ning rivojlanganligi (pedagog sifatida o'ziga xosligini his qilish, o'z kuchiga ishonish);

3) pedagogik faoliyatga faol munosabat: qiziqishlarning kengligi, ijodiy asoslilikning yuqori darajasi, o'z-o'zini anglashi;

4) pedagogik xususiyatlar: pedagogik faoliyatga qiziqish, o'quvchilar bilan o'zaro muhim aloqalarning shaxsiy ahamiyati, oldiga qo'yilgan vazifani hal qilishda moslashuvchanlik, empatiya, kasbiy sezish, faollik kabilar [...].

Talabalarning ijodiy faoliyatida yuzaga keluvchi qiyinchilik va muammolarning ob'ektiv shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) yetarli metodik ta'minotga ega bo'lmaslik;

b) faoliyatini baholashdagi yuzakilik;

v) ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi.

Quyidagilar pedagog shaxsining o'ziga xosliklari bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar qatorini tashkil qiladi:

– pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ichki kuch va imkoniyatlarning yetarli emasligi;

– faoliyatini sohadagi islohotlarga uzviylik holda o'zgartirishga imkon bermaydigan o'z-o'zini yo'naltirish mexanizmining buzilishi;

– salbiy psixologik holatlar (ishonchsizlik, asabiylik, qo'rquv, o'z faoliyatidan qoniqmaslik va boshqalar).

Bo'lajak o'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni talab etadi:

1) kasbiy rivojlanish (konstruktiv strategiya);

2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi);

3) kasbiy deformatsiya (destruktiv strategiya).

Mahoratli pedagoglar uchun qiyinchiliklar innovatsiya to'siqlarini yengib o'tish bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik faoliyatda duch kelinadigan to'siqlar ko'pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur tipologiya bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda

birdan ortiq strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, yosh o'qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, avvalo, kasbiy rivojlanishini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish, kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni hal etishda ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, o'z-o'ziga ishonch, mas'uliyat hissini qaror toptirish hamda o'zgaruvchan vaziyatlarda muvafaqqiyatli harakatlana olish strategiyalarini talab etadi.

Tadqiqot davomida ijodkor pedagog qanday bo'lishi kerak degan nuqtai nazarlar umumlashtirib, pedagogik faoliyat ko'pgina amaliy muammolarni ijodiy hal qilish, ya'ni ta'lim jarayonini oldindan ko'ra bilish, uni loyihalashtirish va tashkillashtirish, o'quvchilarga tashxis qo'ya olish hamda ularning rivojlanishini yaxshilash talabidir degan xulosaga kelindi. Buning uchun o'qituvchidan kasbiga xos mahorat qirralari: mustaqillik, kasbiy sezgirlik va empatiyaga ega bo'lish, tanqidiy fikrlay olish, muammoni his qilish, murakkab vaziyatlarni oldindan taxmin qilish, individual ijodiy uslubini yaratishga intilish va o'z-o'zini rivojlantirish sifatleri talab etiladi. Bir so'z bilan aytganda, ijodkorlikka qandaydir sifatli yangilikni vujudga keltiruvchi faoliyat sifatida qaraladi.

Shaxsda ijodiy faollik ko'nikmalarining orttirilib borilishi ular tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarida aks etadi. Faoliyat bu – “biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat”.

Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning optimal yo'llari ustida izlangan tadqiqotchi G.Amirovaning qayd etishicha, faollik bu “amaliy faoliyatda namoyon bo'luvchi harakat jarayoni bo'lib, predmet, buyum va narsalarning shakli, mohiyati va makonda joylashgan holatlarini tezda ilg'ab olishga o'rgatuvchi omillardan biridir. U nafaqat atrof-olamni o'zlashtirishga, balki shaxsning o'zligini namoyon qilishga qaratilgan faoliyatidir”.

Nazarimizda, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u o'zida talaba shaxsidagi intilish, qiziqish, moyilliklarni o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi, yo'naltirishi, iqtidori va qobiliyatlarining namoyon bo'lishiga imkon beruvchi chora-tadbirlarga asoslanishni taqozo etadi.

Ijodiy fikrlash ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi bosh mezondir. Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy komponentlarini tadqiq qilgan G.Ergashevaning qayd etishicha, “jamoadagi ma'naviy-psixologik iqlim ijodiy muhit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi, ijodga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni baratarf etishi lozim. Qulay psixologik muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi: barcha talabalarda ijodiy jarayonning ortishi, stereotiplarning erkinligi, muhokamalarning noqulay bo'lmasligi, tashabbusi va mustaqilligi, ijodiy kasbiy faoliyatga qiziqish va tayyorligi”.

Albatta, bu jihatlarga e'tibor qaratishda talabalardagi yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlarga asoslanish, individual imkoniyatlarini ko'zda tutish va rag'batlantirish zarur. Bizningcha, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, musobaqalashish, kuch sinashish imkoniyatini berish ularda ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga motivatsiya uyg'otadi.

Ijodkorlik natijasi faqat qandaydir mahsulotni yaratishda emas, balki ijodkor sub'ektining o'zini rivojlantirishida, ya'ni insoniyat faoliyati shakllarida amalga oshiriladigan taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ijodiy rivojlanish barcha taraqqiyot kabi ikki ko'rinishdagi elementni qamrab oladi: reproduktiv (mavjud narsani qaytadan tiklash) va ijodiy (ilgariga qarab intilish imkonini beruvchi yangilik). Ijodiy harakat muammoning yuzaga kelishi, hal qilishga tayyorgarlik, g'oyaning paydo bo'lishi, va nihoyat, uni mujassamlashtirish kabi bir necha bosqichlarga bo'linadi.

Fikrimizcha, o'qituvchi ijodkorligining asosi bo'lib kasbiga nisbatan qiziqishi, manfaatdorligini ifodalovchi ichki motivatsiyasi, iroda sohasining rivojlanganligi va tubdan o'zgargan faoliyatga intilishi hisoblanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchining jamoaviy ijodiy faoliyatini tashkillashtirishda uning qiziqishlari yo'lidagi xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, talabalar oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yish hamda ijodiy faoliyatga faol jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019-yil 3-maydagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" PQ-4307-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagogning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan nutqi", 2019-yil 23-avgust.
3. Xudoyqulov X.J, Kenjaboyev A.E. Pedagogik modul o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. – T., 2018.
4. Raxmanova M. Q. Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligini rivojlantirish // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio' 2023 y.№6/3 246-252
5. Raxmanova M. Q Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi // Uzlursiz ta'lim 2023 y.Maxsus soni 41-46
- 5.Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
- 6.Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.
- 7.Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. 2022. –№3/3, – B. 39-43.
- 8.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
- 9.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.